

STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYASINI QO'LLASHDA BO'LAJAK TARBIYACHINING MEDIA SAVODXONLIGI

G'aniyeva Sarvinoz Dilshodbek qizi

Andijon davlat pedagogika instituti, Maktabgacha

ta'lim kafedrası stajor o'qituvchisi.

E-mail: sarvinozganiyeva674@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqola STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) ta'lim texnologiyasini samarali qo'llashda bo'lajak tarbiyachilarning media savodxonlik darajasini oshirish masalalariga bag'ishlangan bo'lib zamonaviy raqamli ta'lim muhitida tarbiyachilarning media savodxonligi va STEAM yondashuvlarini integratsiyalash jarayonlarini tahlil qiladi.*

Kalit so'zlar: *STEAM ta'lim texnologiyasi, media savodxonlik, bo'lajak tarbiyachilar, raqamli kompetensiya, pedagogik texnologiyalar, ilm-fan, muhandislik, san'at, ijodkorlik, matematika.*

Аннотация. *Данный статья посвящён вопросам повышения уровня медиаграмотности будущих воспитателей в эффективном применении STEAM (наука, технологии, инженерия, искусство, математика) образовательных технологий, а также анализирует процессы интеграции медиаграмотности воспитателей и STEAM-подходов в современной цифровой образовательной среде.*

Ключевые слова: *STEAM образовательные технологии, медиаграмотность, будущие воспитатели, цифровая компетентность, педагогические технологии, наука, инженерия, искусство, креативность, математика.*

Annotation. *This article is dedicated to the issues of increasing the media literacy level of future educators in the effective application of STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) educational technology, and analyzes the processes of integrating educators' media literacy and STEAM approaches in the modern digital educational environment.*

Keywords: *STEAM educational technology, media literacy, future educators, digital competence, pedagogical technologies, science, engineering, art, creativity, mathematics.*

Krish. *XXI asr ta'lim tizimida STEAM yondashuvining ahamiyati kunsayin ortib bormoqda. Ushbu zamonaviy ta'lim jarayonida tarbiyachilarning raqamli kompetensiyalari, xususan media savodxonligi, STEAM ta'limini samarali amalga oshirishida muhim ro'l o'ynaydi. Respublikamizda STEAM ta'lim tizimini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston ta'lim muassasalarida STEAM (Ilm-fan, texnologiya, muhandislik va matematika fanlari bilan birgalikda san'atni*

ham o'qituvchi) fanlarini o'qitish bosqichma bosqich amalga oshirilmoqda.[2] Bu holat STEAM ta'limini amalga oshirishda malakali tarbiyachilarga bo'lgan ehtiyojni yanada oshiryapti. Olimlarimizning fikricha STEAM ta'limi, [STEAM-bu fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika fanlarini birlashtirgan ta'limiy yondashuvdir.[3] STEAM ta'limi amaliy mashg'ulotlar yordamida ilmiy-texnik bilimlarni real hayotda qo'llash imkoniyatini yaratadi [4].

Media savodxonlik - bu zamonaviy raqamli dunyoda zarur bo'lgan ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. STEAM ta'limi kontekstida tarbiyachilarning media savodxonligi nafaqat raqamli vositalardan foydalana olish, balki ularni pedagogik maqsadlarda samarali integratsiyalay olish qobiliyatini ham talab qiladi. Ushbu tadqiqotning maqsadi bo'lajak tarbiyachilarning media savodxonligi va STEAM ta'lim texnologiyalarini qo'llash o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash hamda media savodxonlik darajasini oshirish yo'llarini taklif qilishdan iboratdir. Bo'lajak tarbiyachilarning media savodxonlik darajasini baholash, STEAM ta'limda media savodxonlikning ro'lini aniqlash shuningdek media savodxonlik va STEAM kompetensiyalari o'rtasidagi korrelyatsiyani o'rganish ushbu tadqiqotning eng dolzarb vazifalaridir.

Adabiyotlar Tahlili. STEAM ta'lim texnologiyasi so'nggi yillarda ta'lim jarayonlarini zamonaviylashtirish va o'quvchilarni ko'p qirrali rivojlantirishda muhim omil sifatida keng qo'llanilmoqda. Olimlar va pedagoglar STEAMning fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika sohalarini birlashtiruvchi integratsiyalashgan yondashuv ekanligini ta'kidlaydilar (Bequette & Bequette, 2012; Sanders, 2012). Ushbu yondashuv bolalarning ijodkorlik, muammolarni hal qilish va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali hisoblanadi. Media savodxonlik esa bugungi raqamli davrda tarbiyachilar uchun zarur bo'lgan ko'nikmalardan biridir. Bu tushuncha, ta'lim jarayonida axborotni to'g'ri qabul qilish, tahlil qilish, baholash va yaratish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi (Hobbs, 2010). Media savodxonligi bilan bog'liq tadqiqotlar ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish, o'quvchilarni axborot bilan ishlashga o'rgatish zarurligini ko'rsatadi (Koltay, 2011).

STEAM ta'limini qo'llashda bo'lajak tarbiyachining media savodxonligi uning zamonaviy ta'lim muhitida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun muhimdir. Ba'zi tadqiqotchilar STEAM metodologiyasi va media savodxonlik o'rtasida mustahkam bog'liqlikni ta'kidlab, ularning integratsiyalashgan holda qo'llanilishi ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilishini ko'rsatmoqda (Yakman, 2010; Martinez & Stager, 2013). Shuningdek, pedagogik texnologiyalar sohasida olib borilgan tadqiqotlar media savodxonlikni rivojlantirish uchun innovatsion yondashuvlar va raqamli kompetensiyalarni oshirish muhimligini ta'kidlaydi (Mishra & Koehler, 2006). Bu esa, o'z navbatida, bo'lajak tarbiyachilarning professional tayyorgarligini mustahkamlashga yordam beradi. Natijada, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, STEAM ta'lim texnologiyasini qo'llashda bo'lajak tarbiyachining media savodxonligi

ularning zamonaviy raqamli ta'lim muhitida samarali ishlashi va pedagogik faoliyatini yanada takomillashtirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

STEAM- bugungi kunda dunyo ta'lim tizimining eng asosiy urf bo'lgan innovatsion metodlaridan biri hisoblanib, ushbu metod yordamida fanlar alohida tarmoqlarda emas, balki integratsiyalashgan ya'ni o'zaro bir biriga bog'langan holda umumiy bog'liqligini ko'rsatib o'rgatiladi.[4] Bugun dunyoni texnologiyasiz tasavvur etishning iloji yo'q. Bundan keyin ham texnologik rivojlanish davom etadi va STEAM ko'nikmalari bu-rivojlanishning asosi bo'lib hisoblanadi. STEAM bolalarni ilhomlantiradiva o'qishga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi. Bolalar o'z bog'chalarida kashfiyotchilar va olimlar sifatida tadqiqotlar olib borishadi, texnologiyalarning imkoniyatlarini bilishadi, muhandislar sifatida ijod qilishadi, matematiklar kabi fikrlashadi va albatta bolalar zavqlanib o'ynashadi.

STEAM texnologiyalaridan foydalanish pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Misol uchun: R.X.Bultakova tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda, STEAM metodologiyalari yordamida ta'lim olgan talabalar o'z raqamli kompetensiyalarida 30% ga oshishini ko'rsatdi.[5] R.X.Bultakova o'z ishlarida STEAM texnologiyalaridan foydalangan holda ta'lim olgan talabalarning muammolarni hal qilish ko'nikmalari 25% ga oshganini isbotlagan. R.X.Bultakova tomonidan o'tkazilgan boshqa bir tadqiqotda, talabalarning hamkorlik va jamoaviy ish ko'nikmalarida 40% ga ijobiy o'zgarish kuzatiladi. Ushbu tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, STEAM texnologiyalari nafaqat raqamli kompetensiyalarni, balki umumiy ta'lim sifatini ham oshiradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda bo'lajak tarbiyachilarning media savodxonligi va STEAM kompetensiyalari o'rtasida kuchli ijobiy bog'liqlik mavjud. Media savodxonlik darajasi STEAM ta'limini samarali amalga oshirishning muhim omili hisoblanadi. Bo'lajak tarbiyachilar raqamli vositalaridan foydalanish bo'yicha yaxshi bilimga ega bo'lsalar-da, doimo izlanishda va o'rganishda bo'lishlari zarur. Bu ko'nikmalar STEAM ta'limning kreativ va tanqidiy fikrlash komponentlarini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasida STEAM ta'lim tizimining rivojlanishi, tarbiyachi tayyorlash dasturlarida media savodxonlik kurslarini joriy etish va STEAM yondashuvlari bilan integratsiyalash zamonaviy ta'lim talablariga javob berish uchun zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qilichova M, Bultakova R. "Maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyalari. Usuliy qo'llanma –T.: "Taxriri nashriyot" 2023. 50bet.
2. Bultakova R. STEAM texnologiyalari maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish yo'lida.2022.1(3), 42-48.

3. Roziya Bultakova. Bugungi kunda STEAM texnologiyalarining ahamiyati va afzalliklari. Inklyuziv va barqaror ta'lim xalqaro jurnali , 2 (4), 24-26.

4. <https://doi.org/10.51699/ijise.v2i4.1497>. (2023).

5. <https://inter-publishing.com/index.php/IJISE/article/view/1497>

6. <https://www.natlib.uz>.

7. [www. ziyonet. uz](http://www.ziyonet.uz)